

RASMIY MUNOSABAT



RASMIY MUNOSABAT

RASMIY MUNOSABAT

Termiz shahar hokimligi joriy yilning 20-iyul kuni “Surxon ovozi” gazetasida Termiz shahridagi “Turkmanariq” kanali rekonstruksiya qilinganiga qaramay, hali-hamon kanalga suv kelmagani tanqid ostiga olingan maqola yuzasidan quyidagilarni ma’lum qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrda PQ-4067-sonli qarori asosida reja bo‘yicha 2020-2021 yil davomida Termiz shahrida mutadil iqlimni yaratish maqsadida shaharda “Turkmanariq” kanalining qurilish ishlari 2021-yilning 2-chorak yakuniga qadar to‘liq ta‘mirlash ishlari yakunlanishi belgilangan edi, biroq ushbu xududda noqonuniy qurilishlarni o‘z vaqtida buzdirishning imkoniyati bo‘lmaganligi bois kanalning qurilish ishlari 2022 yilda amalga oshirish uchun yildan

yilga o'tuvchi ob'ektlarning manzilli ro'yxatiga kiritildi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi "2022-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-98-son qarori bilan tasdiqlanib, joriy yilda qurilish ishlariga xalaqit beruvchi muxofaza zonasiga qurilgan noqonuniy qurilishlardan tozalanib, bugungi kunda ob'ektda qurilish ishlari davom ettirilmoqda.

Ushbu kanalning qurilish ishlari 2022 yilning 4 choragida foydalanishga topshirilib, aholining hovli va tomorqa qismini sug'orish uchun ariq suvi bilan ta'minlanishini ma'lum qilamiz.